



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 20-fevral

VII-6-30-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

Tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq manbalaridan foydalanish to'g'risida

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budget Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilish bayoni qarori, jamoatchilik muhokamasi portali (<https://regulation.gov.uz/uz/d/106038>)da muhokamaga qo‘yilganligi, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining taklif va fikrlarini inobatga olib hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq, oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflari hamda tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilish qarori, jamoatchilik muhokamasi portali (<https://regulation.gov.uz/uz/d/106038>)da muhokamaga qo‘yilganligi va xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining taklif va fikrlari ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami **6 945 361,0 ming** (*olti milliard to‘qqiz yuz qirq besh million uch yuz oltmish bir ming*) so‘m mablag‘ 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi O.Neyazov va mablag‘ ajratilgan tashkilot rahbarlari ushbu ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish va bajarilgan ishlar bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budjet

mablag'larining to'g'ri va maqsadli ishlatilishi bo'yicha shaxsiy javobgarlik mas'uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosi xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'latov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 20-fevraldagi
VII-6-30-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy budjetining erkin qoldiq mablag'laridan foydalanish to'g'risida
MA'LUMOT**

t/r	Tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Mablag' miqdori (ming. so'm)	Asos
	Jami:		6 945 361,0	<i>(Olti milliard to'qqiz yuz qirq besh million uch yuz oltmish bir ming)</i>
1	Tuman hokimligiga	Jamoatchilik fikri asosida shakllanadigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun	3 144 000,0	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori
		Tuman hokimligida onlayn yig'ilishlarni tashkillashtirish uchun kompyuterlashtirish markaziga to'lovi uchun	124 700,0	Tuman hokimligining 2025-yil 6-fevraldagi 08/01-25-son xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 6-fevraldagi 02/02-38-51-sonli xulosasi
		Tuman hokimligining xojatxonasini ta'mirlashga qurilish mollarini olish uchun	100 000,0	
		Tuman hokimligi, Xalq qabulxonasi va xalq deputatlari tuman kengashi xodimlarini joriy yilning yanvar-iyun oylari uchun oylik ustamalar va bayram kunlari munosabati bilan moddiy qo'llab-qo'vvatlash uchun (I-guruh va II-guruh)	1 627 082,0	
		Tumandagi mahallalarni ichki yo'llariga piyodalar yo'laklari tashkil qilish maqsadida sement mahsulotini sotib olish uchun	60 000,0	O'zbekiston Mahallalar uyushmasi Kattaqo'rg'on tuman bo'limining 2025-yil 5-fevraldagi xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 6-fevraldagi 02/02-32-19-sonli xulosasi
		Tumandagi Vayrot MFY, Madrasa MFY, Yangihayot MFY va Nomozpolvon MFY binolarini qurilishiga qurilish mollari sotib olish uchun	400 000,0	
2	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi xodimlarini joriy yil yanvar-dekabr oylari oylik ustamalar	947 206,0	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 5-fevraldagi

		uchun		02/06-38-47-sonli xati
3	Tuman Madaniyat bo'limi	Tumandagi "Muxammad Amiri Naqqibek" muzey kutubxonasining issiqlik tizimi uchun	32 000,0	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 4-fevraldagi 02/02-32-18-sonli xulosasi va tuman Madaniyat bo'limi boshlig'i I.Fayziyevning 2025-yil 22-yanvardagi viloyat hokimligi veb sayti "Call markazi"ga qilgan murojaati
4	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	64-MTT ta'miri uchun qurilish mollari sotib olish uchun	96 500,0	Tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining 2025-yil 5-fevraldagi 113-sonli xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 6-fevraldagi 02/02-38-50-sonli xulosasi
		64-MTTga eshik va romlar sotib olish uchun	14 500,0	
		74-sonli umumta'lim maktabning qo'shimcha binosining elektr tizimi, isitish tizimi va ichki shift qismi ta'miri uchun qurilish mollari sotib olish uchun	92 000,0	
		8-maktab atrofini devor bilan o'rash uchun	114 000,0	
5	Tuman "Suv yetkazib berish xizmati" bo'limi	2024-yil dekabr oyida tuman mahalliy byudjetiga tushgan jami suv solig'i summasining tuman "Suv yetkazib berish xizmati" bo'limiga o'tkazib beriladigan 40 foizlik miqdoridan mavjud qarzdorligini qoplash uchun	81 373,0	Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 27-yanvardagi 02/04-38/158-son xatiga asosan
6	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Charog'on MFY 2-kasb hunar maktabi yo'lini ta'mirlash uchun	20 000,0	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasining 2025-yil 6-fevraldagi 36-son xati va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 6-fevraldagi 02/02-32-22-sonli xulosasi
7	Tuman Tibbiyot birlashmasi	TTBga 4 ta isitish qozonlari sotib olish uchun	92 000,0	Tuman Tibbiyot birlashmasining 2025-yil 29-yanvardagi 05/137-sonli xati va Iqtisodiyot va moliya bo'limining 2025-yil 30-yanvardagi 02/02-38-35-sonli xati